XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-dekabr VII-5-025-7-0-K/24 Samarqand viloyati

Samarqand viloyatining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1011-son Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 14-oktabrdagi 01-1239/7-sonli va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi 01/51-1-26812-sonli xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi chaqiriq, beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq Samarqand viloyati mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari 5 915,3 mlrd.so‘m va xarajatlari 8 008,6 mlrd.so‘m ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 2 093,3 mlrd.so‘m miqdorida, shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar 362,3 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq:

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar byudjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Quyidagilar viloyat byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq. Bunda, daromadlar bo‘yicha prognozning bajarilmagan qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo‘yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika byudjeti ixtiyorida qoladi.

Ma’lumot uchun, quyidagi soliqlar Respublika byudjetidan viloyat byudjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 100 foizi;

foyda solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbayida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 100 foizi;

alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) realizatsiyasi uchun aksiz solig‘ining 30 foizi o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika byudjeti va viloyat mahalliy byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

qonunchilikda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan viloyat mahalliy byudjetlariga o‘tkazilishi belgilangan tushumlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar.

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar byudjetlari hamda viloyat mahalliy byudjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-190-son qaroriga asosan tuman va shaharlar hokimliklariga o‘z hududlaridagi avtomobil yo‘llarida yo‘l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalarini o‘rnatish huquqi berilishi munosabati bilan mazkur texnika vositalar orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun undirilgan jarima summasining 30 foizi tuman va shaharlar mahalliy byudjetiga qoldirilishi ko‘rsatib o‘tilsin.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi:

tegishli darajadagi mahalliy byudjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan, ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan daromadlarni) hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag‘larning bir qismini tumanlar va shaharlar budjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga:

ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar bo‘yicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etishga;

ko‘chmas mulk ijara bozorida shakllangan haqiqiy ijara narxlaridan kelib chiqib, 2,0 baravarigacha oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llashga haqli.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi tuman va shaharlar byudjetlariga to‘liq biriktirilgan daromadlarni viloyatning viloyat byudjetiga yo‘naltirishi ta’qiqlanadi (bunda, daromadlari xarajatlaridan yuqori bo‘lgan shahar va tumanlar mustasno).

Agar qonunchilikda daromadlarning byudjet darajalari bo‘yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari respublika byudjetiga o‘tkaziladi;

mahalliy byudjetlarga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari tegishincha viloyatning viloyat byudjetiga o‘tkaziladi.

Byudjet tizimi byudjetlariga ortiqcha yoki noto‘g‘ri to‘langan tushumlarning summalarini qaytarish, ularni qaytarish sanasida amalda bo‘lgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli byudjet tizimi byudjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari bo‘yicha esa, respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (shu jumladan, ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025-yilning 1-iyuliga qadar 2024-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2025-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkaziladi. Shuningdek, ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2024 va 2025-yillardagi davlat ulushi bo‘yicha sof foydasining 100 foizini O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga dividendlar tarzida o‘tkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar uchun dividendlar to‘lash miqdori va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqliligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Samarqand viloyatining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga;

Samarqand viloyatining viloyat mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga;

Samarqand viloyatning viloyat byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga;

viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlari 4-ilovaga;

Bunda, ajratma meyorlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Samarqand viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

viloyat byudjetidan tuman va shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 6-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Viloyatning viloyat byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 18 984,0 mln. so‘m etib hamda tumanlar va shaharlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Viloyatning viloyat byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 38,2 mlrd.so‘m miqdorida belgilansin. Bunda:

shaharlar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2025-yil uchun zaxira jamg‘armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

viloyat, tuman va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini amaldagi Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

8. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 8-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 9-ilovaga hamda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (F.Abilov), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B. Mirzayev), viloyat Soliq boshqarmasi (E. Tolliyev) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

10. Barcha tuman va shahar hokimliklari, mas’ul boshqarma va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Viloyat Soliq boshqarmasi (E.Tolliyev) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Samarqand viloyati boshqarmasi (S.Jabbarov), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Tolliyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat hududiy boshqarmasi (A.Egamov) Bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (A.Yangiboyev) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

14. “Zarafshon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (F.Rajabov) va viloyat Soliq boshqarmasi (E.Tolliyev) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Viloyat Soliq boshqarmasi (E.Tolliyev), viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (B.Tugalov) tuman (shahar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy byudjetlarga undirish choralarini ko‘rsinlar.

16. Xalq deputatlari hududiy Kengashlar hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

17. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

18. Raqobatni rivojlanlantirish va iste’molchilar huquqini himoya qilish viloyat hududiy boshqarmasi (B.Toyirov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (Sh.Boboqulov) byudjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

20. Viloyat hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi (M.Mirzayev), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (M.Ibodullayev), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Tolliyev), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

21. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalaribo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Po‘latov) hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Abilov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi Sh.Negmatov

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-5-025-7-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyatining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	2026-yil uchun maqsadli mo‘ljallar	2027-yil uchun maqsadli mo‘ljallar
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	114 520,6	130 700,0	148 900,0
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	6,3	6,2	6,2
3.	Ist’emol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	8,8	8,7	8,6
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	6,1	6,2	6,4
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	4,1	7,2	7,4
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	9,0	9,5	9,7

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-5-025-7-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Samarqand viloyatining viloyat mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**3 449 986 000,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	486 888 300,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 753 821 470,0
3	Aksiz solig‘i, jami	323 482 870,0
	shu jumladan:	
	-alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	9 507 300,0
	-pivo	13 751 100,0
	-benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*300 224 470,0*
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	177 162 400,0
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	137 050 960,0
6	Davlat boji	215 677 000,0
7	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	3 627 000,0
8	Jarimalar	220 250 000,0
9	Yig‘imlar	132 026 000,0

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-5-025-7-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Samarqand viloyatning viloyat byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**5 543 302 425**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 370 588 513**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	90 962 000
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	81 751 912
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**247 314 611**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**247 314 611**
	shundan:	
	"Yoshlik" sport markazi xarajatlari	2 086 999
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi**	**240 866 487**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**240 866 487**
	shundan:	
	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	1 323 631
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**253 909 924**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**179 009 924**
	shundan:	
	Viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	4 776 531
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	2 342 000
	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	2 176 006
	Sog‘liqni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	391 227

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	74 900 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**93 214 675**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**93 214 675**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi**	**3 527 641**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 527 641**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Sport boshqarmasi**	**120 737 247**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**120 737 247**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi**	**3 493 320**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 493 320**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi**	**10 654 472**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**10 654 472**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**60 457 299**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**60 457 299**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**“Zarafshon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**77 147 216**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**70 647 216**
	shundan:	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	13 420 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	6 500 000
11	**Transport boshqarmasi**	**1 780 721**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 780 721**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi**	**47 470 240**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	**47 470 240**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**3 202 334 976**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 120 583 064**
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	4 500 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	2 000 000
	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	16 202 199
	G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	11 384 025
	Kadastr agentligi Samarqand viloyati boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 900 551
	Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar	3 069 114 159
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	81 751 912
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**2 124 902**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 124 902**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 578 199**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 578 199**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**7 047 658**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 047 658**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**11 444 117**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**11 444 117**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Adliya boshqarmasi**	**20 442 770**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**20 442 770**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Soliq boshqarmasi**	**140 639 904**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**140 639 904**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Hokimiyat**	**903 445 532**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**893 883 532**
	shundan:	
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limlari	4 304 208
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	911 338
	Zaxira jamg‘armasi	38 150 880
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	710 080
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi	5 526 731
	Davlat qarzlarini (asosiy qarz) so‘ndirish bo‘yicha xarajatlar	60 248 451
	Xalqaro moliyaviy institutlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlar	70 138 778
	Davlat ichki qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha boshqa asosiy to‘lovlar	655 490 068
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar bo‘yicha asosiy to‘lovlar	41 660 520
	Avtobus yo‘nalishlarini subsidiyalash	4 951 440
	Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	4 150 000
	Issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	10 192 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	9 562 000
21	**Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)**	**20 761 440**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**20 761 440**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**51 146 995**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**51 146 995**
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	37 358 437
	Axborot-kutubxona markazlari	3 074 669
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	9 890 636
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	**Ichki ishlar boshqarmasi**	**4 519 573**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 519 573**

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	**Mudofaa ishlari boshqarmasi**	**4 332 790**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 332 790**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	**Oila va xotin-qizlar qo‘mitasinining hududiy boshqramasi**	**7 828 595**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 828 595**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
27	**Boshqa tashkilotlar**	**5 081 121**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 081 121**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-5-025-7-0-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlari

Foizda

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Samarqand shahri	0%	10%	100%	90%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	0%	60%	100%	40%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	0%
3	Oqdaryo tumani	0%	73%	100%	27%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
4	Bulung‘ur tumani	0%	73%	100%	27%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
5	Jomboy tumani	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
6	Ishtixon tumani	0%	91%	100%	9%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0%	69%	100%	31%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
8	Qo‘shrabot tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
9	Narpay tumani	0%	80%	100%	20%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
10	Payariq tumani	0%	68%	100%	32%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
11	Pastdarg‘om tumani	0%	49%	100%	51%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
12	Paxtachi tumani	0%	70%	100%	30%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
13	Samarqand tumani	0%	33%	100%	67%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
14	Nurobod tumani	0%	80%	100%	20%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
15	Urgut tumani	0%	48%	100%	52%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

16	Toyloq tumani	0%	75%	100%	25%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

№	Hududlar nomi	pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Samarqand shahri	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	5%	100%	95%
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	0%	0%	100%	100%	0%	88%	100%	12%	0%	100%	100%	0%
3	Oqdaryo tumani	0%	0%	100%	100%	0%	17%	100%	83%	0%	100%	100%	0%
4	Bulung‘ur tumani	0%	0%	100%	100%	0%	55%	100%	45%	0%	100%	100%	0%
5	Jomboy tumani	0%	0%	100%	100%	0%	4%	100%	96%	0%	100%	100%	0%
6	Ishtixon tumani	0%	0%	100%	100%	0%	77%	100%	23%	0%	100%	100%	0%
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0%	0%	100%	100%	0%	42%	100%	58%	0%	100%	100%	0%
8	Qo‘shrabot tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
9	Narpay tumani	0%	0%	100%	100%	0%	80%	100%	20%	0%	100%	100%	0%
10	Payariq tumani	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%
11	Pastdarg‘om tumani	0%	0%	100%	100%	0%	4%	100%	96%	0%	100%	100%	0%
12	Paxtachi tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
13	Samarqand tumani	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	28%	100%	72%

14	Nurobod tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
15	Urgut tumani	0%	0%	100%	100%	0%	15%	100%	85%	0%	100%	100%	0%
16	Toyloq tumani	0%	0%	100%	100%	0%	32%	100%	68%	0%	100%	100%	0%

№	Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Samarqand shahri	0%	24%	100%	76%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
3	Oqdaryo tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
4	Bulung‘ur tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
5	Jomboy tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
6	Ishtixon tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
8	Qo‘shrabot tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
9	Narpay tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
10	Payariq tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
11	Pastdarg‘om tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
12	Paxtachi tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
13	Samarqand tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
14	Nurobod tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%

15	Urgut tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
16	Toyloq tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%

№	Hududlar nomi	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar								
1	Samarqand shahri	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
3	Oqdaryo tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
4	Bulung‘ur tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
5	Jomboy tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
6	Ishtixon tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
8	Qo‘shrabot tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
9	Narpay tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
10	Payariq tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
11	Pastdarg‘om tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
12	Paxtachi tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
13	Samarqand tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
14	Nurobod tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
15	Urgut tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
16	Toyloq tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%

Izoh: Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushadigan tushumlar hamda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini ijara va mulk huquqi asosida sotishdan tushgan mablag‘lar tumanlar va shaharlar byudjetlari hamda viloyat mahalliy byudjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi. Bundan tashqari,

Boshqa tushumlar tarkibi quyidagicha taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin. Ya’ni:

Viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liqligicha:

-Hisob palatasi tomonidan aniqlangan byudjet, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalari daromadiga undirilgan rastratalar, talon-toroj, kamomad, penya va jarimalar hamda noqonuniy xarajatlar summalari, viloyat darajasi (3450602, 3450722)

-Ichki audit xizmatlari tomonidan aniklangan va nokonuniy sarflangan mablaglar, talon taroj, rastratalar, kamomadlar summalarining bir kismi (3450932)

-Viloyat mahalliy byudjetining boshqa daromadlari (3450960, 3450961)

- Byudjet tashkilotlarining asosiy vositalarini sotishdan viloyat byudjetiga tushadigan tushumlar;

Tuman va shaharlar mahalliy byudjetiga to‘liqligicha:

- jarimalar (3 430 103), davlat boji (3 422 103) va yig‘imlar (3 422 203) bo‘yicha tushumlar to‘liq tegishli tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga yo‘naltiriladi;

-Hisob palatasi tomonidan aniqlangan byudjet, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalari daromadiga undirilgan rastratalar, talon-toroj, kamomad, penya va jarimalar hamda noqonuniy xarajatlar summalari, tuman va shahar darajasi (3450603, 3450723)

-Ichki audit xizmatlari tomonidan aniqlangan va noqonuniy sarflangan mablag‘lar, talon taroj, rastratalar, kamomadlar summalarining bir qismi, tuman va shahar byudjeti (3450725)

-Tumanlar va shaharlarning mahalliy byudjetlarining boshqa daromadlari (3450950, 3450916)

- Byudjet tashkilotlarining asosiy vositalarini sotishdan tuman(shahar) byudjetiga tushadigan tushumlar

-Ko‘chma savdo obektini auksion savdolari orqali o‘tkazilishidan olingan pul mablag‘lari (3511117)

Yuqorida ko‘rsatilmagan va Hukumat qarorlari bilan alohida ko‘rsatilmagan boshqa tushumlar to‘liqligicha viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga tushushi belgilansin.

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-5-025-7-0-K/24 -son qaroriga
5-ilova

2025-yil uchun viloyat byudjetidan tuman va shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
	JAMI	**81 751 912,0**
	shundan	
1	Samarqand shahri	0,0
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	0,0
3	Oqdaryo tumani	0,0
4	Bulung‘ur tumani	0,0
5	Jomboy tumani	0,0
6	Ishtixon tumani	0,0
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0,0
8	Qo‘shrabot tumani	25 373 174,0
9	Narpay tumani	15 036 367,0
10	Payariq tumani	16 281 465,0
11	Pastdarg‘om tumani	0,0
12	Paxtachi tumani	12 251 424,0
13	Samarqand tumani	0,0
14	Nurobod tumani	12 809 482,0
15	Urgut tumani	0,0
16	Toyloq tumani	0,0

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-5-025-7-0-K/24 -son qaroriga
6-ilova

2025-yilgi shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
	JAMI	**2 465 319 700,0**	**2 547 071 612,0**
1	Samarqand shahri	358 775 390,0	358 775 390,0
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	93 205 249,0	93 205 249,0
3	Oqdaryo tumani	116 045 120,0	116 045 120,0
4	Bulung‘ur tumani	126 747 503,0	126 747 503,0
5	Jomboy tumani	120 724 045,0	120 724 045,0
6	Ishtixon tumani	163 725 493,0	163 725 493,0
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	168 187 991,0	168 187 991,0
8	Qo‘shrabot tumani	91 529 222,0	116 902 396,0
9	Narpay tumani	132 820 800,0	147 857 167,0
10	Payariq tumani	146 437 471,0	162 718 936,0
11	Pastdarg‘om tumani	206 324 449,0	206 324 449,0
12	Paxtachi tumani	122 869 422,0	135 120 846,0
13	Samarqand tumani	162 032 877,0	162 032 877,0
14	Nurobod tumani	115 219 916,0	128 029 398,0
15	Urgut tumani	206 385 685,0	206 385 685,0
16	Toyloq tumani	134 289 067,0	134 289 067,0

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-5-025-7-0-K/24 -son qaroriga
7-ilova

2025-yil uchun viloyat byudjet, tumanlar va shaharlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**40 000 000,0**
	shundan	
1	Viloyat byudjeti	18 984 000,0
2	Samarqand shahri	3 710 000,0
3	Kattaqo‘rg‘on shahri	845 000,0
4	Oqdaryo tumani	966 000,0
5	Bulung‘ur tumani	980 000,0
6	Jomboy tumani	944 000,0
7	Ishtixon tumani	1 172 000,0
8	Kattaqo‘rg‘on tumani	1 224 000,0
9	Qo‘shrabot tumani	917 000,0
10	Narpay tumani	1 194 000,0
11	Payariq tumani	1 321 000,0
12	Pastdarg‘om tumani	1 583 000,0
13	Paxtachi tumani	1 192 000,0
14	Samarqand tumani	1 203 000,0
15	Nurobod tumani	1 117 000,0
16	Urgut tumani	1 619 000,0
17	Toyloq tumani	1 029 000,0

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-5-025-7-0-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (ming so‘mda)
1	Samarqand shahri	1,38	66 792,0
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	1,22	59 048,0
3	Oqdaryo tumani	0,79	38 236,0
4	Bulung‘ur tumani	0,79	38 236,0
5	Jomboy tumani	0,79	38 236,0
6	Ishtixon tumani	0,65	31 460,0
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0,66	31 944,0
8	Qo‘shrabot tumani	0,62	30 008,0
9	Narpay tumani	0,79	38 236,0
10	Payariq tumani	0,79	38 236,0
11	Pastdarg‘om tumani	0,81	39 204,0
12	Paxtachi tumani	0,64	30 976,0
13	Samarqand tumani	0,81	39 204,0
14	Nurobod tumani	0,62	30 008,0
15	Urgut tumani	0,80	38 720,0
16	Toyloq tumani	0,80	38 720,0

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-5-025-7-0-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (ming so‘mda)
1	Samarqand shahri	1,35	584,6
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	1,13	489,3
3	Oqdaryo tumani	0,61	264,1
4	Bulung‘ur tumani	0,61	264,1
5	Jomboy tumani	0,74	320,4
6	Ishtixon tumani	0,61	264,1
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0,61	264,1
8	Qo‘shrabot tumani	0,61	264,1
9	Narpay tumani	0,61	264,1
10	Payariq tumani	0,61	264,1
11	Pastdarg‘om tumani	0,61	264,1
12	Paxtachi tumani	0,61	264,1
13	Samarqand tumani	0,76	329,1
14	Nurobod tumani	0,61	264,1
15	Urgut tumani	0,62	268,5
16	Toyloq tumani	0,74	320,4

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-5-025-7-0-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Noturar ko‘chmas mulk obyektlarining mol-mulk solig‘i bo‘yicha 1 m2 maydon uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (yirik soliq to‘lovchilardan tashqari)	Minimal miqdor 2025-yil uchun (ming so‘mda)
1	Samarqand shahri	1,00	2 200,0
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	1,13	1 469,0
3	Oqdaryo tumani	0,74	962,0
4	Bulung‘ur tumani	0,74	962,0
5	Jomboy tumani	0,82	1 066,0
6	Ishtixon tumani	0,75	975,0
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0,68	884,0
8	Qo‘shrabot tumani	0,55	715,0
9	Narpay tumani	0,69	897,0
10	Payariq tumani	0,68	884,0
11	Pastdarg‘om tumani	0,82	1 066,0
12	Paxtachi tumani	0,57	741,0
13	Samarqand tumani	0,88	1 144,0
14	Nurobod tumani	0,57	741,0
15	Urgut tumani	0,70	910,0
16	Toyloq tumani	0,82	1 066,0